



KORXONALARDA XUSUSIY KAPITAL ELEMENTLARINING AUDIT OBYEKTI SIFATIDAGI TAVSIFI

SamISI, Buxgalteriya hisobi kafedrası assistenti

Ergasheva Feruza Nasrullayevna

Annotatsiya: Xususiy kapitalning mohiyati, korxonalar faoliyati ravnaqida tutgan o'rni va audit ob'ekti sifatidagi tavsifi, korxonalarfaoliyatidan qat'iy nazar, xoh ishlab chiqarish bilan shug'ullansin, xoh xizmat ko'rsatish bilan faoliyati bog'liq bo'lsin, o'zida moddiy boyliklar va pul mablag'laridan hamda xo'jalik faoliyatini yuritish uchun amalga oshirilgan moliyaviy quyilmalar yig'indisidan tashkil topgan kapitalga ega bo'lishi bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, biznes, buxgalteriya hisobi, xususiy kapital, standartlar, balans.

DESCRIPTION OF PRIVATE CAPITAL ELEMENTS IN ENTERPRISES AS AUDIT OBJECTS

SamISI Assistant of the Department of Accounting

Ergasheva Feruza Nasrullayevna

Abstract: The essence of private capital, its role in the development of enterprises' activities and its description as an audit object, regardless of the activities of enterprises, whether they are engaged in production or related to the provision of services, it includes material assets and funds, as well as financial activities carried out to run economic activities determined by having a capital consisting of the sum of deposits.

Key words: financial reporting, business, accounting, private equity, standards, balance sheet.



Капитал –bu moddiy boyliklar va pul mablag‘lari ko‘rinishida xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun amalga oshirilgan moliyaviy quyilmalar yig‘indisidir. Korxona kapitali o‘z (ichki) mablag‘lari va jalb qilingan (tashqi) manbalardan shakllangan bo‘lishi mumkin. Moliyalashtirishning asosiy manbasi korxonaning kapitalidir. Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta‘minlaydigan omillardan biri korxona kapitalining ko‘payishi.

Korxona xususiy kapitalining umumiy ko‘rinishini aktivlarnishakllantirishda investitsiyalashtirilgan pul mablag‘lari, moddiy va nomoddiy shakldagi boyliklar baholaydi.

Korxona ustav kapitali uning ustavi va ta‘sis shartnomasiga muvofiq qoidaga ko‘ra, ta‘sischilarning hissalarini hisobiga barpo etiladi. U korxonaning xo‘jalik faoliyatidan olinadigan foydasi hisobiga, zarur bo‘lganda ta‘sischilarning maqsadli badallari hisobiga ham to‘ldirilishi mumkin. Korxona ustav kapitaliga hissa sifatida binolar, inshootlar, qurilmalar va boshqa moddiy qiymatliklar: yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari, shuningdek, boshqa mulkiy huquqlar (shu jumladan, kashfiyotlardan foydalanish uchun, «NOU XAU» va boshqa nomoddiy aktivlar); qo‘shma korxona ishtirokchilari davlatlarining valyutalaridagi erkin ayirboshlanadigan valyutalarda pul mablag‘lari qo‘shilishlari mumkin.

Muassislarning badallari pul summalarini, shuningdek binolar, inshootlar, uskunalari, nomoddiy aktivlar va hokazo ko‘rinishida kiritilishi mumkin. Ustav kapitalining xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

ustav kapitalining miqdori korxona ustavi va ta‘sis shartnomasiga muvofiq belgilanadi va nisbatan doimiy harakterga ega bo‘ladi. Uning birlamchi miqdorini o‘zgarishi faqat korxona ustavini davlat qaydnomasidan qayta o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi;

ustav kapitalini haqiqatda shakllantirish vaqt bo‘yicha chegaralanadi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq korxonalar ustav kapitalini shakllantirishning oxirgi muddati bo‘lib ta‘sis etilgan sanadan boshlab bir tavqim



yil hisoblanadi. Ushbu muddatda o'z ustav kapitalini shakllantirmagan korxonalar yuridik statusini yo'qotadi va tugatiladi. Ustav kapitali korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakllariga va mulk shakllariga bog'liqdir. Xususiy va kollektiv o'rtoqchilik mulklari asosida tashkil etilgan korxonalarda ustav kapitali ta'sischi-larning pay va badallaridan iborat bo'ladi. Aksionerlik jamiyatlarida ustav kapitali chiqarilgan oddiy va imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatidagi summalarining yig'indisidan tashkil topadi.

Ustav kapitaliga ta'sischi-larning hissalarini uzoq va qisqa muddatli aktivlar bilan, ya'ni asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital va moliyaviy investitsiyalar, tovar-moddiy boyliklar va pul mablag'lari bilan, kiritilishi mumkin.

Ta'sischi-larning ustav kapitalidagi hissalarini korxonaning sof foydasini hissali usulda taqsimlashga, aksiyalarning soni esa sof foydani ularning har biriga mos ravishda taqsimlashga asos bo'lib hisoblanadi. Davlat korxonalarida sof foyda taqsimlanmaydi va ustav kapitalining miqdorini oshirishga yo'naltiriladi.

Xususiy kapital korxona balansining 3 qismida joylashgan unda mulk egasiga tegishli bo'lgan, ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan va foyda keltiradigan mol-mulklari yig'indisi aks ettirilgandir.

Xususiy kapital - korxona mol-mulkining haqiqiy bahosi, aktivlari (mol mulklari) va majburiyatlari o'rtasidagi farq bilan aniqlanadi.

Korxonaning xususiy kapitali o'z ichiga iqtisodiy kelib chiqishi har xil bo'lgan, shakllanish usullari va korxonaning moliyaviy resurslari manbalaridan foydalanishni oladi. Bunday bo'lishlar xo'jalik faoliyatini tahlil qilish jarayonida moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun zarurdir. Korxona balansining passivlari tizimidagi kapital salmog'ining yuqoriligi korxonaning moliyaviy barqarorligidan dalolat beradi.

Korxona o'z kapitali uni mablag'larining umumiy qiymatini ifodalab, unga mulk huquqi asosida tegishli bulib, aktivlarining ma'lum qismini barpo etish uchun foydalaniladi. O'z kapitaliga investitsiyalash hisobidan barpo etilgan aktivlarning bu



qismi, korxonaning sof aktivlarini ifodalaydi. Korxona kapitali aylanish jarayonida uchta boskichdan o'tadi:

Birinchi boskichda pul shaklida kapital operatsion aktivlarga (aylanma va aylanmadan tashkari) investitsiyalanib, ishlab chikaruvchishaklga aylanadi.

Ikkinchi boskichda ishlab chikaruvchi kapital mahsulot ishlab chikarish jarayonida tovar shakliga aylanadi.

Uchinchi boskichda tovar kapitali tovar va xizmatlarning sotilishi natijasida pul kapitaliga aylanadi.

Bozor iqtisodiyoti modernizatsiya qilish sharoiti va korxonalar faoliyatiga talablarning oshishi bilan, korxonalar barqaror ishlashi uchun, ularning faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish zarurati kuchayadi. Shuning uchun har bir korxona ko'zda tutilgan maksadlarga erishish va samarali rivojlanishning optimal yo'lini tanlash uchun, muayyan hisob siyosatiga ega bulishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2009 yil 19 martdagi 37-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobot"ning 5-shaklida xususiy kapitalning tuzilmasi quyidagilardan iboratdir deb ko'rsatilgan: Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), sotib olingan xususiy aksiyalar maqsadli tushumlar va boshqalar.

Xususiy kapitalni tasniflash uchun tavsiya etilayotgan guruhlar buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini tadqiq etish asosida ishlab chiqilgan.

Ustav kapitali deganda korxonaning ta'sischilari tomonidan unga kiritiladigan mablag'lar majmuasi, shuningdek chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatidagi summalarining yig'indisi tushuniladi.

Xususiy kapital auditining ob'ekti, elementi hamda nazorat nuqtalarini aniqlashda O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tartibga solib turuvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslaniladi. Shu o'rinda xususiy kapitalning tarkibiy elementlarining shakllantirilishi va ishlatilishi bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lish talab etiladi. Tadqiqot jarayonida xususiy kapital har bir elementining



xususiyatlaridan kelib chiqib audit qilishda e'tibordan qochirmaslik talab etiladigan alohida jihatlar aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Боронов, Бобур, and Заррух Мухаммадиев. "Хўжалик Юритувчи Субъектларда Капитал Инвестицияларга Доир Бухгалтерия Ҳисобининг Ахборот Қамровини Кенгайтириш Йўллари." *Advanced Economics and Pedagogical Technologies* 2.2: 444-450.
2. Боронов, Б. Ф., and Ш. С. Олматова. "МАҚСАД ВА ВАЗИФАҲОИ КУРСИ АМАЛИЯИ НУТҚИ ШИФОҲӢ ВА ХАТТИИ ЗАБОНИ АНГЛИСӢ." *ДОНИШГОӢИ ДАВЛАТИИ КӢРГОНТЕППА ба номи НОСИРИ ХУСРАВ КУРГАН-ТЮБИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ имени НОСИРА ХУСРАВА*: 108.
3. Боронов, Бобур, and Миржалол Ахмедов. "Нодавлат Таълим Ташкилотларида Даромадлар Ҳисобининг Илмийназарий Асослари." *Economic Development and Analysis* 3.5: 288-294.
4. Боронов, Бобур, and Миржалол Ахмедов. "Республика Миллий Иқтисодиётини Ривожлантиришда Нодавлат Олий Таълим Ташкилотларининг Ўрни Ва Аҳамияти." *Economic Development and Analysis* 3.8: 167-173.
5. Боронов, Б. Ф., Кадирова, Х. Т., Нурмухаммадов, Х. Х., Холмўминов, Ш. Р., Бобаназарова, Ж. Х., Умирзоқов, Ж. А., ... & Бабаев, Ш. Б. Инвестициялар ва инвестицион фаолият.
6. Филиппова, Г. П. "Подходы к оценке налоговой нагрузки для стимулирования инновационных процессов в экономике." *Инновационное развитие экономики* 5 (2011): 51-52.
7. Bakhramovich, Urazov Komil, Boronov Bobur Farkhodovich, and Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug'li. "REGULATION OF THE TAX RATE BORDER AND ITS INFLUENCE ON INVESTMENT ACTIVITY



OF THE ENTERPRISES." *ИЛТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯ ЖУРНАЛИ*
ЖУРНАЛ ИННОВАЦИИ В ЭКОНОМИКЕ JOURNAL OF INNOVATION
IN: 76.

8. Farxodovich, Boronov Bobur, and Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li.
"MECHANISMS FOR USING INFORMATION AND
COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES IN THE ELECTRONIC
GOVERNMENT SYSTEM OF UZBEKISTAN AND THEIR
EFFECTIVENESS." *Лучшие интеллектуальные исследования* 59.2
(2025): 285-292.
9. Farxodovich, Boronov Bobur. "STAGES OF DEVELOPMENT OF THE
INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES
SYSTEM." *Лучшие интеллектуальные исследования* 59.2 (2025): 293-
298.
10. Rajaboev Shahboz Shodiyevich, and Raxmatov Ozodbek Aktam O'g'li.
"Information Technology Is Now Used Everywhere". *Miasto Przyszłości*,
vol. 44, Jan. 2024, pp. 114-21,
<http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2372>.
11. Rajaboev, Shahboz Shodiyevich, and Abdunazar Burkhonovich Gaffarov.
"ESSENCE OF DECISIONS ON MEASURES FOR THE DEVELOPMENT
OF INFORMATION AND COMMUNICATION
TECHNOLOGIES." *Bulletin news in New Science Society International*
Scientific Journal 2.1 (2025): 120-125.
12. Ражабоев, Ш., и П. Хамидова. «ИСПОЛЬЗОВАНИЕ
ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В
УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ». *Экономическое развитие и*
анализ, т. 3, вып. 1, январь 2025 г., сс. 120-4,
<https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/65480>.